



**RAQAMLI
IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISH
ORQALI YASHIRIN
IQTISODIYOTNI
QISQARTIRISH**

ABDIHOMIDOV ZARIF

SHERZOD O'G'LI,

O'zMUJF, talaba.

NAJMIDDINOV DILSHOD

RAFIDDIN O'G'LI,

O'zMUJF, o'qituvchi.

E-mail:zarifabdihomidov@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp7-9>

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uni jamiyatga tatbiq etish hozirgi kunda biz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini anglash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish dunyo miyosida jadal tus olganligi haqida so'z boradi. Maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyotni tubdan rivojlantirish, yangiliklar kiritish, jamiyat a'zolarini raqamli iqtisodiyot haqida tanishtirish orqali ularning dasturiy savodxonligini oshirishdir.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, texnologiya, telekommunikatsiya vositalari, korrupsiya, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, norasmiy iqtisodiyot.

Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul. Yusuf Xos Hojib o'zining "Bilimsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni och kishi nima qilsin?!"- deb ilm-ma'rifatning o'rni naqadar muhimligini osha davrlar-dayoq ko'rsatib o'tgan edi. Mamlakatimizda ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilishi bugungi kun zaruratidir. Ze'ro eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asnosida amalga oshirishning yaxlit bir tizimi sifatida qaraladi. Bunda raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir.

Birinchi marta 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" atamasini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu so'zni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha insonlar qo'llamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatga binoan quyidagi vazifalar belgilandi:

- raqamli iqtisodiyotni jadal shakllantirish;
- raqamli infratuzilmani to'liq modernizatsiya qilish va zamonaviy IT-xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- elektron hukumat tizimini rivojlantirish;
- dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali "raqmli tadbirkorlik"ni rivojlantirish;
- 2022-yilga qadar barcha hududlarda raqamli bilimlarni o'qitish markazlari ochiladi.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda bizning kundalik hayotimiz uchun ahamiyatlidir. Uni rivojlantirishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek, blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi.

Raqamli iqtisodiyotning texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi.

2020-yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko'tarilib, Prezidentimiz Farmoni bilan mamlakatimizning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi

Yashirin iqtisodiyot, boshqacha qilib aytganda xufiya iqtisodiyot — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Butun dunyo bo'yicha 2019-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushi 52,11% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot chuqur ildiz otib ketganidan dalolat beradi.

Biz yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun raqamli iqtisodiyotni barcha sohalarda qo'llashimiz kerak bo'ladi. Barcha sohalarda raqamli tizimga o'tilishi insonlarga yengillik tug'diradi, ham ish sifati oshadi, asosiysi yashirin iqtisodiyot qisqarishiga zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Yashirin iqtisodiyot har qanday davlatni ich-ichidan yemiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki yashirin iqtisodiyotda davlat budjetiga hech qanday soliqlar, yig'imlar undirilmaydi, tom ma'noda umuman mavjud bo'lmagandek aniqlash mushkul bo'ladi. Demak, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda eng asosiy dastaklardan biri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

2.Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.

3.Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.

4.Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.

Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.